

**o‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘zbek shevashunosligi markazi

**“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI:
AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari**

2023-yil 20-may

TOSHKENT – 2023

“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2023. bet.

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov

filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

Normurodova N. Z., filologiya fanlari doktori, professor;

Jamoliddinova O.R., pedagogika fanlari doktori, professor;

Normamatov S.M., filologiya fanlari doktori (DSc), professor;

Abdushukurov B.B., filologiya fanlari doktori, professor;

Abdinazimov Sh.N., filologiya fanlari doktori, professor;

Ashirboyev S., filologiya fanlari doktori, professor,

Jo‘raqo‘ziyev N.I., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent;

Rahmatov M.M., filologiya fanlari doktori, dotsent;

Tilavov A.X., filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Xidraliyeva Z.R., katta o‘qituvchi;

Aliqulova H., katta o‘qituvchi;

Qodirov U.A., o‘qituvchi.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti folklorshunoslik va dialektologiya kafedrasidan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: maliyot, metodologiya, yangicha yondashuv”** mavzusidagi 2023-yil 20-mayda o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriyat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

*Ботди отанг, ёр-ёр.
Калласини олти ой,
Озиқ қилсин, ёр-ёр.
Почасини молларига,
Қозик қилсин, ёр-ёр.
Оч ичагин пўстинига,
Астар қилсин, ёр-ёр.
Тўқ ичагин бошларига,
Дастор қилсин, ёр-ёр.*

Ёр-ёр кўшиқлари ўзбек никоҳ тўйи маросим фольклорининг ажралмас қисми бўлиб қиз узатилиб кетилаётган пайти куйланиши билан аҳамиятлидир. Бу кўшиқ ижро ўрни, вазифаси, куйловчиси, мазмун моҳиятига кўра ўланлар ва лапарлардан фарқ қилади. Айрим сатрларда “ўлан” сўзининг қўлланилиши уни ўлан ўрнида кўришга изн бермайди. Ёр-ёрларда мисра тўрт қатор бўлиб, сатрлар беш, олти, айрим ўринларда етти бўғиндан иборатдир. Ёр-ёр кўшиқларининг мақсади ўзга хонадон, ўзга олам сари яқинлашаётган келин кўнглини хотиржам қилиш, уни овутишдан иборатдир. Аксинча, “ўлан” ва “лапар”лар эса мисра тўрт қатор бўлсада, бўғинлар ўн икки, ўн тўрттадан кам бўлмайди ва ижрочи рақибни сўз орқали енгиш, ғолиб бўлиш мақсадини ўз олдига кўяди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Алиқулова Х.Қ. Ўзбек ва қозоқ ёр-ёрларининг қиёсий типологик таҳлили //Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги – ЎЗА Илм-фан бўлими (электрон журнал), 2022 йил ноябрь. – Б.152-157.
2. Жўраев М. Остонаси тилло уй кўшиқлари //Икки кўнгил бир бўлсин. Ёр-ёрлар. /Тўпловчи ва тузувчилар М.Жўраев, Л.Худойқулова. – Тошкент: Гафур Гулом, 2016. – Б.3-15.
3. Муродова М.Ш. Ўзбек никоҳ тўйи фольклорининг жанрлар таркиби ва бадиияти (Ўрта Зарафшон воҳаси материаллари асосида): филол.ф.б.фалса.докт.дисс.автореферати. – Тошкент: ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, 2018. – 53 б.
4. Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – 305 б.
5. Саримсоқов Б. Маросим фольклори //Ўзбек фольклори очерклари. 3 томлик. 1-том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.199-200.
6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 12 жилдлик. 3 жилд. ГИДРОФИЛИЯ-ЗЕБРА. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – 704 б.

MANSUR AFZALOVNING ILMIIY FAOLIYATI XUSUSIDA

ON THE SCIENTIFIC ACTIVITY OF MANSUR AFZALOV

Tojiboyeva Ozoda Tohirovna,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotation. *The article provides information about the scientific activity of Mansur Afzalov, a folklorist, and his contribution to folklore.*

Key words: *scientist, folklore, research, analysis, creativity, classification.*

O‘zbek xalqi yaratgan boy ijod mahsullari bizning kunimizga qadar osonlik bilan yetib kelgan emas. Agar yozma adabiyotga mansub badiiy asarlar asrlar davomida kitoblarga ko‘chirilib saqlangan bo‘lsa, xalq yaratgan ijod mahsullari xotirada – yodda saqlanib yetib kelgan. Ular o‘tgan asrning boshlaridan e‘tiboran og‘zaki tarzda yozib olinib, bir guruh fidoyi olimlar tomonidan nashrga tayyorlandi. O‘zbek xalqi yaratgan boy ijod namunalarining to‘planishi, nashr yuzini ko‘rishi va natijada folklorshunoslik yo‘nalishining rivoj topishida Xodi Zarif, Buyuk Karimov, G‘ulom Zafariy, G‘ozi Olim Yunusov, Abdulla Alaviy, Muzayyana Alaviya, Zilola Husainova, Miyonbuzruk Solihov kabi olimlar qatorida filologiya fanlari nomzodi Mansur Inoyatovich Afzalovning ham o‘ziga xos o‘rni va salmoqli hissasi bor.

Mansur Afzalovning uzoq yillik mehnat faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Til va adabiyoti institutida kechgan. Shu dargohda olgan aspirantura (1934-37) tahsilidan so‘ng kichik ilmiy xodim (1937-50), katta ilmiy xodim (1950-1972), bo‘lim mudiri vazifalarida faoliyat yuritgan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodini to‘plash, xalq orasidan yig‘ib olish ishlarining ilk bosqichlaridayoq olim baxshilar og‘zidan xalq dostonlari va ertaklarini yozib olishda faol ishtirok etdi. Ana shu uzluksiz olib borilgan mehnat natijasida ko‘plab xalq dostonlari va “O‘zbek xalq ertaklari”ni nashrga tayyorladi. Ajdodlar yaratuvchiligining tengsiz isboti bo‘lgan bu ertaklar bugungi kunga qadar o‘zbek bolajonlarini badiiy adabiyotning sirli olamiga boshlab, ezgulikka yetaklab, hayotdan mazmun izlashga o‘rgatib kelmoqda.

M.Afzalov xalq durdonalarini nashrga tayyorlash barobarida ilmiy tahlillarga boy “O‘zbek xalq ertaklari” haqida” (1964) nomli monografiya, “O‘zbek folkloridan namunalar” (1938), “Ergash Jumanbulbul ijodi” (1950) kitoblarini e‘lon qildi. Shuningdek, olimning “Islom shoir Nazar o‘g‘li” (1939), “Bekmurod jirov haqida” (1844), “Bekmurod shoir” (1946), “Talantli xalq kuychisi” (1951), “Alpomish” dostonining variantlari haqida” (1956), “Mamadravim baxshi” (1960), “Islom shoir va uning “Orzigul” dostoni haqida” (1961), “O‘zbek folkloristikasining asoschisi” (1966), “Xalq ertaklari tasnifi” (1967), “Po‘lkan” (1976) kabi tadqiqotlari xalq baxshilari hayoti va faoliyatini o‘rganish, dostonlarni ommalashtirish jarayoniga ulkan hissa bo‘lib qo‘shilgan.

M.Afzalovning ilmiy tadqiqot yo‘nalishida navoiyshunoslik ham alohida sahifani tashkil etadi. Jumladan, Alisher Navoiy haqida xalq orasidagi afsona, rivoyat va ertaklarni to‘plab, ular haqida ilmiy maqolalar e‘lon qiladi. Mazkur izlanishlar natijasida A.A.Semyonov, P.Og‘oliev, Berdi Kerboboyevlar bilan birgalikda Alisher Navoiy haqida o‘zbek va turkman xalqi orasida keng tarqalgan afsonalar asosida “Dono Alisher” (Alisher Navoiy haqida xalq afsonalari) (1968) kitobini nashrga tayyorlaydi. Mansur Afzalov folklor va yozma adabiyotning tutash nuqtalarini bog‘lay olgan olim sifatida adiblarning o‘z g‘oyalarini xalqdan olgani va keyinchalik o‘z asarlari bilan yana xalq og‘zaki ijodiga ta’sir ko‘rsatishi masalasiga e‘tibor qaratib, o‘z tadqiqot yo‘nalishi bilan keyingi davrdagi Alisher Navoiy va xalq og‘zaki ijodi masalasi rivojiga salmoqli darajada hissa qo‘shadi. Adabiyotshunos olim N.Mallaev “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti” monografiyasining (1978; 2015) “Alisher Navoiy va xalq afsonalari” bo‘limida Navoiy haqidagi folklor asarlarini shartli uchga bo‘lish mumkin deydi [Маллаев 2015: 255] :

a) *fors-tojik tilidagi Buxoro afsonasi*. Sharqshunos olim A.Semyonovning “Persidskaya novella o Mir-Alishere Navoi” (1926) maqolasi asosida;

b) *turkman versiyalari*. P.Ogaliyevning “Mirali ve Soltansoyun” (1941, 1948), B.Kerboboyevning “Eserlar toplumi, dordunji tom” (1959);

c) *o‘zbek tilidagi afsona va rivoyatlar*. O‘zbek tilidagi versiyalari M.Afzalov nashrga tayyorlagan “O‘zbek xalq ertaklari” (II jild, 1964), F.Abdullayev tayyorlagan Xorazm ertaklari (1961) va “Dono Alisher”ga kiritilgan.

N.Mallaev mazkur afsona va rivoyatlarning turkman va o‘zbek versiyalarini qiyoslaydi hamda xalq variantlarini M.Afzalov tasnifiga ko‘ra afsona, kitobiy asarlarni hikoya, deb atash ma’qulroq deydi.

M.Afzalov ertaklar va xalq dostonlarini o'rganishga butun umrini bag'ishlagan fidoyi olim. Shu ma'noda uning navoiyshunoslik faoliyati xalq og'zaki ijodi bilan ikki nuqtada o'zaro birlashib ketadi:

1. Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar, "Farhod va Shirin" syujetli ertaklar.

2. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosidagi xalq dostoni, umuman, "Xamsa"ning baxshilar ijodida qayta ishlanishi masalasi.

Adabiyotshunoslik ilmida ilmiy-nazariy muammolarni hal qilishda anchayin ilgarilab ketilgan bugungi kunda mazkur muammolar yengil va sodda tuyulishi mumkin. Biroq xalqning jonli bisotida to'planib yotgan xazinani yig'ish va uni ommalashtirish, kelajak avlodlarga yetkazish mas'uliyati bilan yondashilgan bir paytda bu ishlar katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ayniqsa, mazkur namunalar Alisher Navoiy va xalqni bog'lovchi rishtalar haqida aniq tasavvur berishi bilan ahamiyatli bo'lib, xalqning buyuk adibga munosabati, muhabbati natijasida ulardagi ijodiy qobiliyatni yuzaga chiqarishga turtki berganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'zbek adabiyotida Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari tarkibidagi "Farhod va Shirin" dostonini qiyosiy-tarixiy aspektda ilk marta tahlil qilgan olim Abdurauf Fitrat hisoblanadi. Fitratning 1930-yil "Alanga" jurnalida e'lon qilingan "Farhod va Shirin" dostoni to'g'risida nomli maqolasida ilk bora shu syujetdagi asarlar qiyosiy tekshiriladi. Asosiy markazga Alisher Navoiy dostoni syujetini qo'ygan holda Firdavsiy "Shohnoma"sidan boshlab Nizomiy "Xisrav va Shirin"i, hatto Navoiydan keyin yaratilgan xalq qissalari, nasriy bayonlar va xalq dostonlariga qadar tahlil qiladi. O'sha paytlarda Fitrat kiritgan ayrim ma'lumotlar butkul yangi bo'lib, aksariyat noshirlar tomonidan tayyorlanib toshbosmada chop etilgan kitoblar edi. M.Afzalovning pedagogik bilim yurtidagi tahsilini 1924-yil, ilmiy tadqiqot faoliyatini 1930-yillardan boshlaganini e'tiborga olsak, aynan Abdurauf Fitrat ko'rsatib o'tgan manbalar bilan yaxshi tanish bo'lgan. 1950-yilda folklor ma'lumotlari asosida "Farhod va Shirin" dostonining xalq varianti haqida mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Dissertatsiyada Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoniga Fozil Yo'ldosh o'g'lining shu nomdagi xalq dostoni qiyosiy ravishda o'rganiladi. Olim mavzu tadqiqiga kirishishdan oldin o'zi izlanishlar asnosida to'plagan materiallarni ham qiyoslab o'tadi, ertak, rivoyatlarning o'zbek xalqi hayoti bilan bog'liq ravishda talqin qilinganiga urg'u beradi. Shuningdek, olim ishda ilmiy maqola shaklida Fitrat tomonidan o'rganilgan dastlabki ma'lumotlarni kengroq tahlilga tortadi. Alisher Navoiyning dostoni mazmunini Fozil Yo'ldosh o'g'lga yetkazishda vosita bo'lib xizmat qilgan yoxud xalq orasida keng tarqalgan ikkilamchi asarlarni ta'riflab o'tadi. Jumladan, Umar Boqiy, XIX asrda Mahzun tomonidan, 1908-yil Mir Maxdum ibn Shohyunus tomonidan nasriy bayon qilingan "Qissai Farhod va Shirin", xalq orasidagi Farhodning suv chiqarishi bilan bog'liq ertak va afsonalarni tahlilga tortadi. Jumladan, bu dostonni Fozil Yo'ldosh ustozlari Yo'ldosh shoirdan eshitganini aytib, shu nomdagi xalq qissalari katta ta'sir ko'rsatganini ta'kidlab o'tadi: "Qissalar xalq shoiri – baxshilar ijodiga ma'lum darajada ta'sir etib kelgan. Xat-savodli bo'lmagan xalq shoir va dostonchilari qissalarni savodlilarga o'qitib tinglar va o'z hofizalarida saqlab, keyin xalq dostonlari usulida asarlar yaratganlar". Dissertatsiya ishi Fozil Yo'ldosh o'g'lining kiritgan o'zgartirishlari va badiiy mahoratini ochishga qaratilgan ish sifatida muhim qimmatga ega.

Umuman olganda, Mansur Afzalovning folklorshunoslik ilmi rivojida o'ziga xos o'rni va hissasi bor. Olim tayyorlagan xalq dostonlari, ertaklar, ilmiy tadqiqot ishlari faning keyingi tadqiqotlarning yaratilishiga zamin yaratgani ham e'tirofga loyiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afzalov. M. Navoiy haqida xalq afsonalari // Sharq yulduzi. 1948. 5-son. – B. 26-32.
2. Afzalov M. "Farhod va Shirin" dostonining xalq varianti haqida. Filol. fan. nomz... dis. – Toshkent, 1950.
3. Kerboboev B. Эсерлар топлуми, дордунжи том. 1959.

4. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т.: Гафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015.
5. Огалыев П. Мырдали в Солтансойун. 1941, 1948.
6. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. Баҳром ва Гуландом. Зевархон. Фарҳод ва Ширин. Лайли ва Мажнун. Нашрга тайёрловчилар Муродов М, Афзалов М. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1986.
7. Семенов А. А. «Персидская новелла о Мир-Али-Шире «Неваи» // Бюллетень САГУ, № 13, Ташкент, 1926.
8. Фитрат А. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 2000.

ЎЗБЕК ВА ҚИРҒИЗ ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА СИРҒАНИНГ РАМЗИЙ-ТИМСОЛИЙ ТАЛҚИНЛАРИ

SYMBOLIC INTERPRETATIONS OF EARRINGS IN UZBEK AND KYRGYZ FOLK SONGS

Sulaymanova Mehrinsa Ibraximovna
Andijon davlat pedagogika instituti v.b. dotsenti

Annotation: *The article describes the symbolic representation of earrings in Uzbek and Kyrgyz folk songs.*

Key word: *Kazakh, Kyrgyz, nation, tradition, heritage, image, expression.*

Дунё фольклоршунослигида халқ оғзаки ижодининг аналогик хусусиятли анъанавий образлари генезиси ва поэтикасига хос типологик ҳамда специфик жиҳатларни қиёсий ўрганиш инсоният бадий тафаккури тараққиётининг синкретик ҳолатларини аниқлаш имконини беради. Натижада оддий турмуш буюмларининг рамзий тимсоллар сифатида образлантирилишига замин яратган тасаввур-тушунчалар илдизини, маъно ва вазифалари синкретиклашувини очиш имкони пайдо бўлди. Бу эса туркий, шу жумладан, ўзбек ва қирғиз фольклоршунослигида тақинчоқлар образи ва тимсолларини халқ бадий тафаккурининг тадрижий ривожига асосида ўрганиш заруратини кўрсатади. Тақинчоқлар орасида сирға рамзий маънода аёл киши образини ифодалайди.

Сирғалар турли ёшдаги барча аёлларнинг нафақат байрамона, балки кундалик тақинчоқларидан биридир. Сирға ҳар бир миллат аёлининг қулоққа тақиладиган сеvimли тақинчоқларидан ҳисобланади.

*Бек кызыдай, Нускайым,
Бешигинде экенде,
Бештен сөйкө тагынган.
Алты жашар маалыңда,
Атажеңнин барыда,
Алтыннан сөйкө тагынган* [Кыргыз поэзиясынын антологиясы 1999: 85].

Ўзбекча мазмуни:

*Бек қизидай Нускайим,
Бешикдаги пайтингда
Беши зиракни таққансан.
Олти яшар пайтингда,
Отажонинг борида
Олтиндан сирға таққансан.*

	(Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asari misolida)	
105	Eshboyeva Shoira Bakir qizi, “Devoni lug‘otit turk” asaridagi harakatning natijasi bo‘lgan holat fe‘llari	392
106	Rozumbetova Xilola Umar qizi, O‘g‘uz lahjasida fonetik xususiyatlar	394
107	Xurramova Aziza Alisher qizi, Tog‘on qishloq shevasi leksikasiga doir	397
108	Ollamova Kiyishjon Erkin qizi, Jumaniyoz Sharipovning “xorazm” romanida qo‘llanilgan leksik dialektizmlar	401
109	Axmedova Aynura Quanishbay qizi, Qaraqalpaq tili qubla dialektikasini leksikalik qurami	403
110	Solihova Mahvash Do‘stmurod qizi, O‘zbek shevalarida bilingvizm hodisasi (Buxoro, Surxondaryo, Samarqand shevalari misolida)	405
111	Turg‘unova Noila Bektosh qizi, Navoiy viloyati shevasida leksik dialektizmlar	408
112	Lolayeva Ozoda, Shevalar bazasida sinonimik leksemalar	411

FOLKLORSHUNOSLIK

1	Jabbor Eshonqulov Epik matnning qiyosiy tadqiqi masalalari	415
2	Bekbergenova Ziyada Utepvna, Professor S.Bahadirova izertlewlirinde qaraqalpaq dāstanlarin salistirmali ūyreniw tājiriybesi	418
3	Xamrakulova Xurshida, Bolalar qo‘shiqlari yaratgan obrazlar	422
4	Salima Mirzayeva, Gulsanam Mashrapova, Ayrim marosimlar xususida	425
5	Палымбетов Камалбай Сарсенбаевич, “Қоблан” дәстанының қарақалпақ хәм қазақ версияларындағы айырым мотивлер типологиясы	429
6	Abdumurod Tilavov Dostonlar – lug‘at boyligimiz manbai	433
7	Temirov Farrux Umedovich, Sadridin ayniy va ilmiy-adabiy aloqalar	442
8	Sayitqulov Ilhom Abdusalamovich, Jangnoma dostonlar va ularning xususiyatlari	446
9	Guljahon Amonovna Mardonova, “Yor-yor” qo‘shiqlarining tarixiy asoslari va badiiyati	450
10	Tojiboyeva Ozoda Tohirovna, Mansur Afzalovning ilmiy faoliyati xususida	453
11	Sulaymanova Mehrinsa Ibraximovna, O‘zbek va qirg‘iz xalq qo‘shiqlarida sirg‘aning ramziy-timsoliy talqinlari	456